



## BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA RIVOYA MATN USTIDA ISHLASHGA OID ALGORITMIK TOPSHIRIQLAR

**J.J.Baynazarova,**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti assistent o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida rivoya matn ustida ishlashga oid algoritmik topshiriqlari va qoyiladigan talablari haqida so'z boradi. Bunda matn yaratishning belgilangan bosqichlari rejalashtirish, yaratish, tahrirlash va taqdim etishga oid ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tiborni qaratilgan.

**Kalit so'zlari:** boshlang'ich sinf, ona tili darslarida, rivoya matn, ko'nikma, algoritmik topshiriqlari.

**Annotation.** The article discusses algorithmic tasks and requirements for working with narrative text in primary school native language lessons. At the same time, special attention is paid to the formation of skills related to planning, creating, editing, and presenting the established stages of text creation.

**Key words:** elementary school, native language lessons, narrative text, skill, algorithmic tasks.

Hozirgi globallashuv sharoitida ona tili ta'limining asosiy maqsadi – o'quvchilarni nutqiy savodxonligini rivojlantirish orqali samarali muloqot qilish, tanqidiy fikrlash va jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlashdan iborat. Bu yo'lda amalga oshiriladigan barcha islohotlar o'quvchining 4 asosiy nutqiy ko'nikmasini shakllantirishga asoslangan holda olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Ona tili darslarida rivojlantirilishi lozim bo'lgan va hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan muhim ko'nikmalardan biri bu – matn yaratish. Ushbu ko'nikma o'quvchining og'zaki yoki yozma nutqini shakllantirishdan tashqari, insonning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan, barkamol shaxs sifatida rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega.

Rivoya matn yaratishning har bir komponenti muayyan mashq va topshiriqlar yordamida rivojlantirib boriladi. Bunda matn yaratishning belgilangan bosqichlari (rejalashtirish, yaratish, tahrirlash va taqdim etish)ga oid ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tiborni qaratish, ularning o'zaro bog'liqligini ta'minlash va izchilligiga erishish muhim sanaladi. Ishlab chiqilgan ta'lim mazmuniga ko'ra belgilangan maqsadlarning aksariyati qoida bilan emas, balki doimiy bajariladigan topshiriqlar yordamida ko'nikmaga aylantirilishi ma'lum bo'ladi. Shunday ekan, mazkur o'rinda tavsiya etiladigan har bir mashq yoki topshiriqdan foydalanishning davomiyligi samarali natijani qo'lga kiritishning asosiy mezoni ekanini ta'kidlash



muhim. Algoritmik topshiriqlar deganda qanday topshiriqlar nazarda tutiladi, ulardan foydalanishning samarali jihatlari nimalarda aks etadi?

Pedagogikada “algoritm” tushunchasiga “ko‘rsatilgan maqsadga erishish yoki qo‘yilgan topshiriq(masala)ni yechishga qaratilgan vazifa(amal)lar ketma-ketligini bajarish borasida ijrochiga aniq ko‘rsatmalar berish” deya ta’rif keltirilgan. Ya’ni algoritmik topshiriqlar biri keyingisini taqozo etadigan, o‘zaro bog‘langan hamda bir-birining ustiga quriladigan mazmunga ega bo‘lishi talab etiladi. O‘quv jarayonida bunday topshiriqlarning didaktik imkoniyatlari va ahamiyati yuqori bo‘lib, ularning afzalligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi: [1].

**1. Mantiqiy va tizimli fikrlashni rivojlantirish.** Algoritmik mashqlar inson ongining belgilangan tizim asosida ishlashiga yordam beradi. Algoritmik fikrlash esa “universal ko‘nikma” hisoblanib, bunday mazmundagi topshiriqlar bilan ishlash muammolarni yechishda paydo bo‘lgan mavhumlikni aniqlashtirib, yechimning bir nechta variantlarini o‘ylab topish qobiliyatini rivojlantiradi. Shuningdek, algoritm murakkab jarayonni soddaroq, mantiqan bog‘langan kichik bosqichlarga ajratish, har bir jarayonga oid topshiriqlarni birma-bir bajarib borish sifatli natijaning kafolati ekanini anglashga yordam beradi. O‘quvchi qanday fikrlash kerakligini, ya’ni faoliyatni rejalashtirishni o‘rganadi. Bu mustaqil o‘rganish va muammoni hal etish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradi.

**2. O‘quv materialini o‘zlashtirish samaradorligini oshirish.** Xorijlik mutaxassis algoritmik topshiriqlarni “fikrlash haqida fikrlash” (metakognitsiya) vositasi deb ataydi. Uning fikricha, algoritmlar orqali bola o‘z xatolarini tahlil qilishni va mantiqiy model qurishni o‘rganadi, bu esa o‘z navbatida umumiy intellektual rivojlanishga sabab bo‘ladi [2].

Til ta’limida esa algoritmning doimiy takrorlanishi grammatik qoidalar, matnni o‘qib, tahlil qilish yoki yaratish kabi kognitiv jarayonlarga xos alohida komponentlarning uzoq muddatli xotirada saqlanishini ta’minlaydi. Bosqichma-bosqich shaklda olib borilgan jarayon hech bir muhim elementni unutmaslikka, har bir elementga alohida e’tiborni qaratishga yordam beradi, natijada diqqatsizlik oqibatida yuzaga keladigan xatolar soni keskin kamayadi.

**3. Mustaqillik va javobgarlikni kuchaytirish.** Algoritmik shaklda ishlab chiqilgan topshiriqlar o‘quvchiga o‘z-o‘zini mustaqil shaklda boshqarish, o‘z-o‘zini tekshirish mexanizmi sifatida xizmat qiladi. Chunki bunday shakldagi topshiriqlarda nima qilish?, qanday qilish?, nimadan foydalanish? kabi savollarga aniq javoblar belgilangan bo‘ladi. Bu esa o‘quvchining nazarida qiyin bo‘lib tuyulgan



topshiriqlarni bajarishda hosil bo‘ladigan qo‘rquvlarni yengishga yordam beradi [3]. Algoritmik topshiriqlarni ishlab chiqishda matn yaratishning asosiy bosqichlarini inobatga olish, topshiriqlarni tasniflashni ham shu jihatga asoslanib amalga oshirish to‘g‘ri hisoblanadi. Unga ko‘ra, matn yaratishga oid algoritmik topshiriqlar ketma-ketligi quyidagi tartibga asoslanadi:

1. Rejalashtirishga yo‘naltirilgan algoritmik topshiriqlar;
2. Matnni yaratishga yo‘naltirilgan algoritmik topshiriqlar;
3. Tahrirlash, tuzatish va taqdim etishga yo‘naltirilgan algoritmik topshiriqlar.

Ushbu yo‘nalishlarning har biri o‘z ichida bir nechta ko‘nikmani shakllantirishni maqsad qilgan bo‘lib, ular o‘zaro izchillik, soddadan murakkabga tamoyilini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi. Bundan tashqari, keltirilgan uch yo‘nalishdagi topshiriqlar o‘zaro bog‘liqlik va ketma-ketlik, tadrijiylik sifatiga ham ega bo‘lishi ahamiyatli hisoblanib, bu belgilangan maqsadga erishishning muhim shartlaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda, ona tili ta’limida o‘quvchilarning rivojga matn yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish bu – shunchaki ijodiy jarayon emas, balki aniq ketma-ketlik va tizimli yondashuvni talab qiladigan murakkab kognitiv faoliyatdir. Uni rejalashtirish, yaratish va tahrirlash kabi kichik bosqichlarga ajratish hamda jarayonda algoritmik topshiriqlardan foydalanish yanada sifatli mahsulotni yaratish uchun muhim bosqich bo‘lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pedagogik atamalar lug‘ati. T.: o‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti - 2008.
2. Jeannette M. Wing. Computational Thinking. Communications of the ACM, 2006.
3. Seymour Papert. Mindstorms: Children, Computers, and Powerful Ideas. Basic Books, 1980.